

MAQSUD SHAYXZODA – VATAN va INSONPARVARLIK KUYCHISI.

Sayfutdinova Ro'zigul Abilkasimovna

Toshkent davlat transport universitetini

Avtomobil yo'llari muhandisligi fakulteti

"AYQ va EQ" kafedrasi dotsenti

Elmurodov Hamidillo Otobek o'g'li

3-bosqich YMAL-6 guruhi talabasi

elmurodovhamidillo@gmail.com

Annotatsiya: Maqsud Shayxzoda (1908-1967)-XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lib, u o'z asarlarida vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalarini ulug'lagan. Uning ijodida milliy mustaqillik, inson qadr-qimmati va xalqparvarlik asosiy mavzulardan hisoblanadi. Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos ijodiy yo'li va boy merosi bilan alohida o'rinn egallagan ijodkorlardan biridir. Ozarbayjonning Oqtosh shahrida ziyoli oilada dunyoga kelib, taqdir taqozosi bilan uning hayoti va ijodi O'zbekiston bilan bog'lanadi.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda, yirik vakillari, insonparvarlik, qadr-qimmati, mustaqillik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, merosi, ijodkor, ziyoli, taqdir taqozosi, ta'lif, tarjimonlik, tragediya, timsoli, ilm-fan, sarkarda,adolatsizlik.

Maqsud Shayxzoda 1908-yil 7-noyabrda Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. Uning otasi Ma'sumbek nafaqat shifokor, balki ilm-fan va adabiyotga ham chuqur mehr qo'ygan kishi bo'lib, oilada ilmiy va badiiy muhit shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Yosh Shayxzoda oilasidagi bu ma'rifatli muhit ta'sirida shakllandı, Pushkin, Lermontov, Shekspir, Balzak, Firdavsiy va Navoiy asarlarini o'qib ulg'aydi. Shayxzoda ijodida insonparvarlik muhim o'rinn tutadi. U inson erkinligi, adolat va mehr-oqibatni targ'ib qilgan. Uning ko'plab she'rlarida insonning ichki kechinmalari, azob-uqubatlari va umidlari ifodalangan. Adibning "O'zbekistonda" she'ri yurtoshlariga bo'lgan cheksiz muhabbat va insoniy qadriyatlarini madh etish bilan ajralib turadi. U yoshlik yillarda ilm olishga ishtiyogi baland bo'lib, Boku Oliy pedagogika institutida tahsil oldi. Uning mehnat faoliyati esa Dog'istonda boshlanib, u yerda muallimlik, jurnalistika va adabiy faoliyat bilan shug'ullandi. Lekin uning taqdiri o'zbek adabiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lishi taqdir yozuvida bor edi.

Shayxzoda 1925-yilda dorilmualliminni tamomlab, Dog'istonda Darband va Mo'ynanoq shaharlarida o'qituvchilik qila boshladi. 1927-yilda uning ilk katta asari "Narimon haqida xalq masali" Bokuda chiqadigan "Maorif va madaniyat" jurnalining 3-sonida e'lon qilindi. Ammo Shayxzodaning hayot yo'li bir tekisda ketmaydi. Kichikligidan boshiga tashvish tushadi. U 1927-yilda millatchilikda ayblanib, ozodlikdan mahrum bo'ladi va 3 yilga Toshkentga surgun qilinadi.

Maqsud Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, tez orada o'zbek adabiy hayotining faol ishtiroychisiga aylandi. U dastlab turli gazeta va jurnallarda ishladi, keyinchalik esa Fanlar Qo'mitasining Til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritdi. U adabiyotga yangicha nazar bilan qarar, zamонавиј she'riyatga o'ziga xos ovoz olib kirgan ijodkor edi.

Shayxzoda o‘zbek mumtoz adabiyotini chuqur o‘rganib, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiy merosini ilmiy jihatdan tadqiq etdi. Uning ilmiy ishlari filologiya sohasida ham muhim o‘rin tutadi. 1935-1938 yillarda Fanlar Qo‘mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida ishladi. 1938-yildan umrining so‘ngiga qadar Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining “O‘zbek mumtoz adabiyoti” kafedrasida dotsent lavozimida xizmat qilib, malakali kadrlar yetishtirishga o‘z hissasini qo‘shdi.

Shayxzodaning adabiy faoliyati 1929-yildan boshlangan bo‘lib, uning dastlabki she’riy to‘plamlari – “O‘n she’r” (1932), “Undoshlarim” (1933), “Uchinchi kitob” (1934) va “Jumhuriyat” (1935) asarlari adabiyotga o‘ziga xos ovozga ega bo‘lgan shoir kirib kelayotganidan darak berdi. Shoirning ijodi mustahkam milliy ruh, Vatanga bo‘lgan sadoqat va insoniy qadriyatlarga chuqur hurmat bilan yo‘g‘rilgan edi.

Umrim bino bo‘ldi Ozarbayjonda,

Kechdi bolaligim, u gul makonda.

Nizomiy vatani, Ganja o‘lkasi.

O‘pkamga to‘ldirdi she’r havosin,

Ko‘r naxrim muloyim, tinch musiqasi.

Ko‘nglimda uyg‘otdi kuylash havasin,

Lekin shoirlikning nozik toile,

Kuldi Sirdaryoning havzalarida.

Shayxzoda ijodi eng gullagan paytda, shiraga to‘lgan vaqtida olamdan ketdi.

U qisqa hayot kechirdi-yu 60 yoshga ham to‘lmay, 1967-yil 19-fevral kuni uzoq vaqt davom etgan xastalikdan so‘ng bu olamni tark etdi va Toshkentning Chig‘atoq qabristoniga dafn etildi. Ozarbayjon tuprog‘ida tug‘ilgan falakning gardishi bilan o‘zbek tuprog‘iga kelib qolib, zavq-shavq bilan ijod qilgan, zamonaviy o‘zbek adabiy tili va adabiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan bu ulug‘ insonning muborak nomi hech qachon xalq nomidan o‘chmaydi.

Xulosa qilib aytganda: Maqsud Shayxzoda o‘zbek adabiyotida vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilgan yirik shoir va dramaturgdir. Uning asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, yosh avlodni tarixiy xotira, milliy g‘urur adolat g‘oyalari asosida tarbiyalashga xizmat qiladi. Uning ijodi milliy iftixor, Vatanga muhabbat, insoniylik va adolat kabi tushunchalar bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan. Shoirning asarlari, uning ma’rifiy faoliyati va tarjima merosi keyingi avlodlarga ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

1. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi – O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Toshkent, O‘zbekiston Milliy Ensiklopediya bosh tahririysi.
2. M. Qosimov. “O‘zbek adabiyoti tarixi”, Toshkent, Fan nashriyoti, 1985.
3. S. Umarov. “O‘zbek she’riyatida vatanparvarlik mavzusi”, Toshkent, 2001.
4. Shayxzodaning adabiy va tarjima asarlari – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi fondlaridan olingan materiallar.